



UDK: 811.133.1:811.512.133

Mo'tabar KULDASHEVA,
O'zMU tayanch doktranti
E-mail: muatabar83@gmail.com

PhD N.Kuldasheva taqrizi asosida

FRANSUZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING EPIDIGMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz tilidan o'zlashgan so'zlarning epidigmatik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'ati asosida misollar berilgan. Jumladan, o'zlashgan so'zlarning evaluativ birikmalar bilan talab etiladigan yaqinligi, matnlarda ijobiy semantik prozodiyaga ega bo'lishi yoki ijtimoiy-madaniy norma bilan turli ma'nolar o'rtasidagi ko'p qatlamli semantik ajralish epidigmatik hodisalarning tipik ko'rinishlari ekanligi nazariy manbalar asosida isbotlandi. Fransuzcha o'zlashmalarning epidigmatik xususiyatlarini aniqlash va modellashtirish o'zbek tili uchun kamida uch darajada strategik ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Epidigmatika, re-borrowing, paradigmatic, syntagmatic, grafemik moslashuv, deskriptiv, normativ.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭПИДИГМАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются эпидигматические особенности слов, заимствованных из французского языка, с приведением примеров на основе толкового словаря узбекского языка. В частности, доказано, что близость заимствованных слов к оценочным сочетаниям, наличие у них положительной семантической прозоидии в текстах, а также многослойное семантическое расхождение между социально-культурной нормой и различными значениями представляют собой типичные проявления эпидигматических явлений. Отмечено, что определение и моделирование эпидигматических особенностей французских заимствований имеет для узбекского языка стратегическое значение как минимум на трёх уровнях.

Ключевые слова: эпидигматика, повторное заимствование, парадигматический, синтагматический, графемная адаптация, дескриптивный, нормативный.

A STUDY OF THE EPIDIGMATIC FEATURES OF FRENCH LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the epidigmatic features of words borrowed from French, illustrated with examples based on the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. It has been demonstrated that the closeness of loanwords to evaluative collocations, their possession of positive semantic prosody in texts, and the multilayered semantic differentiation between socio-cultural norms and multiple meanings represent typical manifestations of epidigmatic phenomena. It is noted that identifying and modeling the epidigmatic features of French borrowings holds strategic importance for the Uzbek language on at least three levels.

Key words: Epidigmatics, re-borrowing, paradigmatic, syntagmatic, graphemic adaptation, descriptive, normative.

Kirish. O'zbek tilining so'nggi o'n yilliklar taraqqiyoti globallashuv, raqamli kommunikatsiya va ilm-fan, siyosat hamda biznes diskurslarining tezkor integratsiyasi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro almashinuvda tarixan nufuzli bo'lgan fransuz tili leksikasi ham o'zbek tiliga ko'p qatlamli oqimlar orqali kirib kelmoqda: bir qismi bevosita, katta qismi esa rus tili vositachiligidagi, yana ayrimlari esa ingliz tilidan o'tish jarayonida "ikkinchi darajali" (re-borrowing) xususiyat kasb etgan holda. Natijada "parlament", "byuro", "etika/etiket", "bujet/byudjet", "ballet", "menu", "dessert", "debyut", "montaj", "avangard", "prestij", "syujet" kabi yuzlab birliklar nafaqat lug'at tarkibini boyitdi, balki turli uslublar, sohalar va diskurslarda ma'no, ohang hamda qo'llanish ko'lamini kengaytirdi. Ayni paytda o'zlashmalarni nafaqat fonetik va grafemik moslashuvi, balki ular atrofida shakllanayotgan assotsiativ, kollokatsion, uslubiy va diskursiv tarmoqlar, qisqacha aytganda, epidigmatik xususiyatlarni izchil ochib berish zarurati keskin sezilmoqda.

Tadqiqot doirasidagi "epidigmatik" atamasi mazkur ishda operatsion ta'rif sifatida quyidagicha talqin qilinadi: leksik birlikning paradigmatic (sistemadagi o'rni) va syntagmatic (nutq zanjiridagi bog'lanishlar) qatlamlaridan "ustun" turuvchi, real nutqiy faoliyat jarayonida shakllanadigan kollokatsion odatlar, semantik prozodiyalar (ijobiy-salbiy fon), stilistik-chegaraviy signallar, konseptual-metaforik proeksiyalar, janr-diskurs me'yorlari hamda intertekstual ishoralar majmuasidir [1]. Masalan, "debyut" so'zining sport va san'at sharhlarida "muvaqqafiyatli-omadsiz" singari evaluativ birikmalar bilan talab etiladigan yaqinligi, "prestij"ning reklama va brending matnlarida ijobiy semantik prozodiyaga ega bo'lishi yoki "etika-etiket" juftligidagi ijtimoiy-madaniy norma bilan "yorliq, stiker" ma'nolari o'rtasidagi ko'p qatlamli semantik ajralish kabilarning barchasi epidigmatik hodisalarning tipik ko'rinishlaridir.

O'zbek tilshunosligida o'zlashmalar ko'proq fonetik-grafik moslashuv, morfologik o'zlashish va semantik

kengayish/torayish nuqtai nazaridan yoritilib kelgan bo'lsa-da, ular nutq amaliyotida qanday kollektiv odat va janr-uslub me'yorlarini hosil qilishi, qaysi kollokatsion oilalarga birikishi, qanday diskurslarda qanday semantik prozodiya bilan ishg'a tushishi masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Bu bo'shliq bir necha amaliy muammolarni keltirib chiqaradi:

1) normativ imlo va terminografik ishlar uchun izchil tavsiyalar ishlab chiqishda empirik tayanch yetishmaydi;

2) tarjimashunoslikda "so'z-so'zga" muvofiqlikdan tashqari diskurs va kontekst muvofiqligini ta'minlash qiyinlashadi;

3) til siyosati va til madaniyati bo'yicha qo'llanmalar kollokatsion va uslubiy me'yorlarni yetarli darajada kodifikatsiya qilolmaydi;

4) ta'lim jarayonida real nutqiy me'yorlar bilan mashg'ulot tizimi orasida tafovut yuzaga keladi.

Bizningcha, fransuzcha o'zlashmalarining epidigmatik xususiyatlarini aniqlash va modellashtirish o'zbek tili uchun kamida uch darajada strategik ahamiyatga ega:

a) deskriptiv – korpus va matnlar asosida haqiqiy qo'llanish manzarasini aniq chizish;

b) normativ – imlo, uslub va terminografiya uchun asosli tavsiyalar berish;

c) amaliy – tarjima, ta'lim va media muharririyati uchun kollokatsion-diskursiv me'yorlarni aniqlashtirish.

Mazkur soha yetarlicha o'rganilmaganda, birlamchi va ikkilamchi oqibatlar zanjiri paydo bo'ladi. Birlamchi oqibat – variantlilikning boshqarilmasligi: "bujet/byudjet", "reting/rejting", "menyu/menu" kabi shakliy farqlanishlar matnlararo notekislikka olib keladi. Mazkur notekislik faqat grafik darajada emas; u epidigmatik darajada ham ko'rinmas bo'linishlarni yaratadi: masalan, reklama diskursida "prestijli" bilan "nufuzli"ning semantik prozodiya farqlari, ilmiy diskursda "montaj" va "tahrir" o'rtasidagi ish jarayoni metaforalari o'ziga xos "soha-ichki kodlar"ni talab qiladi. Ikkilamchi oqibat – tarjima strategiyalarining noturg'unligi: tarjimon kollokatsion odatlardan bexabar bo'lsa, nutq egalarida "begonalik effekti"ni kuchaytiradigan nojo'ya birikmalar paydo bo'ladi (masalan, "qattiq prestij" kabi g'ayrioddiy kombinatsiyalar yoki "debyut qilish" bilan "kirish so'zi"ni almashtirish). Uchinchisi – terminografik nomuvofiqlik: bir sohada "komissiya-byuro"ning sotsial-institutsional konnotatsiyasi farqlanmasa, huquqiy yoki ma'muriy jarayonlarni yoritishda mantiqiy buzilishlar yuzaga keladi. To'rtinchisi – ta'lim va testlashdagi noaniqlik: kollokatsion me'yorlar ko'rsatilmaganda, talabalar "so'z ma'nosini bilish"ni "to'g'ri qo'llash" bilan adashtiradi, natijada yozma nutqda "lug'aviy to'g'ri, lekin diskursiv noqulay" konstruksiyalar ko'payadi. Beshinchisi – media muharririyatida stilistik izchillikning yo'qolishi: janrga xos epidigmatik odatlar normativlashtirilmaganda, xabar, reportaj, sharh va tahlil tiplarida so'z tanlashdagi "ohang" tartibsizlashadi.

Fransuzcha o'zlashmalar bo'yicha tarixiy-etimologik va fonetik-morfologik tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha nutq amaliyotidagi dinamikani, ya'ni "kollokatsion odatlar"ni fanga kiritish uchun zarur bo'lgan korpus asosli va diskursiv tahlillar bilan bog'lanmay qoladi. Semantik prozodiya, multiperspektiv konnotatsiya, uslubiy gradient, janr-diskurs me'yorlari, intertekstual ishoralar kabi tushunchalar ko'proq ingliz tili korpus lingvistikasida faol qo'llanmoqda; o'zbek tilidagi fransuzcha o'zlashmalar kontekstida bu yondashuvlar endigina shakllanmoqda. Shuningdek, o'zlashmalarni "bir so'z - bir ma'no" emas, balki "bir birlik - bir necha epidigmatik tarmoq" sifatida ko'rish zarurati nazariy asosga muhtoj.

Ushbu ishda epidigmatik xususiyatlar uch yo'nalishda ochildi [2]:

1) Kollokatsion tuzilma: o'zlashmaning eng barqaror birikuvlari, ularning chastotasi va janrlar bo'yicha taqsimoti (masalan, "debyut – muvaffaqiyatli, yorqin, ilk", "prestij – brend, ta'lim muassasasi, maqom" va h.k.);

2) Semantik prozodiya va evaluativ gradient: birlik atrofida to'planadigan ijobiy-salbiy ohanglar (masalan, "skandal" va "avans" singari birliklarda salbiy/neytral fonlarning sohalar bo'yicha almashishi);

3) Diskurs janr me'yorlari: xabar, sharh, ilmiy maqola, huquqiy matn, reklama, ijtimoiy tarmoq posti kabi janrlarda so'z tanlash va ularning "moslashuv samarasi". Mazkur uchlikka qo'shimcha ravishda uslubiy registr (rasmii, neytral, og'zaki, professional jargon), metafora-metonymiya xaritalari va intertekstual ishoralar (masalan, "avant-garde"ning san'at tili orqali ijtimoiy-siyosiy diskursga ko'chishi) ham tahlil etiladi.

Tadqiqotimizda korpus lingvistikasiga tayangan holda, turli manbalardan (ommaviy axborot vositalari, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar, reklama matnlari, audio-vizual subtitrlar, ijtimoiy tarmoqlar) tuzilgan o'zbek tilidagi matnlar to'plamida fransuzcha o'zlashmalarni izlanadi, kollokatsion vektorlarni (MI, t-score, logDice kabi o'lchovlar bilan) aniqlaydi, janr-diskurs kesimida ularning tarqalishini solishtiradi. Bundan tashqari, tarjimonlar va muharrirlar bilan yarim tuzilgan suhbatlar orqali real amaliyotdagi "nozik joylar" xaritalanadi; eksperimental kichik testlar (masalan, kollokatsion moslikni baholash) orqali qabul qiluvchilar idrokining izchilligi tekshiriladi. Ma'lumotlar interpretatsiyasi kognitiv-lingvistik va lingvokulturologik prinsiplar bilan uyg'unlashtiriladi.

Epidigmatika – bu ko'p ma'noli so'zning ichki, tarixan shakllangan ma'no tizimini (ierarxik semantik hosiladorlikni) o'rganadigan yo'nalishdir; uning birliklari epigmalardir, ya'ni bitta leksik birlikning barcha uzual (odatdagi) ma'nolari majmui. Mazkur atama ko'pincha yunoncha "ἐπίδοσις" ("qo'shilish, ko'payish") etimologiyasi bilan izohlanadi va ko'p ma'nolilikning ichki tuzilishini modellashtirishga xizmat qiladi. Leksikologik izohli manbalarda epidigmatika "zamonaviy ko'pma'noli so'zning tarixiy tarzda shakllangan, ma'no ierarxiyasini tashkil etuvchi semantik hosiladorlik" sifatida tariflanadi. Shu sababli epidigmatik tahlil ma'nolar o'rtasidagi integrativ va differensial belgilarning to'plamini aniqlab, bir ma'no boshqasidan nima jihatdan farqlanishini qat'iy ko'rsatadi [3].

Atamaning ilmiy muomalaga kirishi XX asr ikkinchi yarmidagi rus struktur-semasiologik an'analardan bog'liq bo'lib, D. N. Shmelyov tomonidan "epidigmatika" termini sifatida taklif etilganini bir qator darslik va maqolalar aynan qayd etadi. Shmelyov epidigmatik munosabatlarni ko'pma'noli so'z semantikasi doirasida alohida tur sifatida ajratib, ularni formal-semantik va sof semantik bog'lanishlarga taqsimlaydi; bu, o'z navbatida, ichki leksik derivatsiyani (metafora, metonymiya, ma'no torayishi/kengayishi kabi mexanizmlar orqali) rekonstruksiya qilishga imkon beradi [4].

Leksik tizimni uch "o'lcham"da tasvirlash g'oyasi – sintagmatika (kombinativ bog'lanishlar), paradigmatika (o'rinbosarlik/variantlar) va epidigmatika (ichki ma'no hosiladorligi) keyingi yillarda ko'plab qo'llanmalar va o'quv lug'atlarida mustahkamlandi. Ushbu triada til tizimidagi birlikning (so'zning) bir paytning o'zida zanjirli bog'lanishlarda ishtirok etishi, paradigmatic qatorda almashinishi va eng muhimi, polysemiya ichidagi ichki ierarxiyani saqlashi haqidagi tasavvurni barqarorlashtirdi. O'quv lug'atlari buni alohida ta'kidlab, "so'zning uch o'lchami" sifatida ko'rsatadi [5].

Epidigmaning o'zi ko'pma'noli so'zning barcha ma'nolar majmui nazariy jihatdan sinxron kesimda ko'riladi: chunki u hozirgi til holatiga xos paradigmalar va sintagmalar

bilan bevosita bog'liq, biroq ichki tuzilishi tarixiy jarayonda yuzaga kelgan ma'no siljishlari (metaforizatsiya, metonimizatsiya, semantik ixtisoslashuv) bilan belgilanadi. Epidigmatik tahlil aynan shu ma'no hosildorligi genealogiyasini tiklashga qaratiladi: integrativ/differensial belgilarning uzluksizligi, markaziy (asosiy) va periferik (hosila) sememalar ierarxiyasi, radial yoki zanjirsimon kengayishlar va hokazo [6].

Mazkur yondashuvning muhimligi o'zlashma birliklar tadqiqida yanada yorqin ko'rinadi. Fransuz tilidan kirib kelgan leksik birliklar (gallisizmlar) ma'no jihatidan, avvalo, qabul qiluvchi til tizimi ichida qayta tashkil topadi: dastlabki nominativ ma'no ko'pincha funksional-uslubiy, terminologik yoki metaforik qatlamlarda yangi semantik o'choqlar yaratadi. Rus tilidagi gallisizmlarning "epidigmatik o'zlashtirilishi"ga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar epidigmatik yondashuvni "o'zlashgan leksikaning uchinchi o'lchami" sifatida talqin etadi: ya'ni so'zning paradigmatic/sintagmatik xususiyatlari bilan birga ichki ma'no iyerarxiyasini ham hisobga olgan holda, qabul qiluvchi til madaniy-tarixiy kontekstida ma'no hosil bo'lishining ichki mexanizmlarini beradi. Bu metodologik model fransuzcha o'zlashmalarning o'zbek tilida "o'z joyini topishi"ni (so'z ma'nosining ko'payishi, ko'chma ma'nolarning paydo bo'lishi, uslubiy qatlamlanish) bosqichma-bosqich ko'rsatish imkonini beradi [7].

Shu nuqtai nazardan, epidigmatika o'zlashmalar semasiologiyasini ikki jihatdan boyitadi. Birinchidan, u ma'no hosil bo'lishining ichki mexanizmlarini rekonstruksiya qiladi: qaysi semantik komponentlar barqaror (meros), qaysilari esa qabul qiluvchi tilning kommunikativ amaliyoti natijasida orttirilgan (innovatsion) ekanini ajratadi. Ikkinchidan, u leksik birlikning derivatsion salohiyatini (so'z yasash va ma'no hosil qilish o'rtasidagi o'zaro ta'sirni) yoritadi: ma'no o'zgarishi

bilan birga so'z shaklining (prefiks, suffiks, birikish) o'zgarishi ham kuzatilishi mumkin. Bu holat ko'plab ishlarda epidigmatika va derivatsiya bog'lanishini muhokama qilgan mualliflar tomonidan qayd etilgan. Natijada, o'zlashma birliklar ichida "markaz – periferiyadagi" ma'nolar, ularning ijtimoiy-uslubiy taqsimoti (adabiy/og'zaki, ilmiy/publitsistik), shuningdek metafora/metonimiya kabi semantik mexanizmlar tizimli ko'rinishga keladi [8].

Epidigmatikaning nazariy ildizlari umumleksik semasiologiya bilan uzviy: leksik semantika so'z ma'nosining tarkibi va ma'nolararo munosabatlarni (polysemiya, sinonimiya, giponimiya, antonimiya va b.) tahlil qiladi; epidigmatika esa aynan bitta so'z ichidagi ma'nolar tizimini tarixiy va sinxron kesimda tarmoqlab beradi. Demak, paradigmatic qator ichidagi almashinuvni, sintagmatika nutqdagi qo'shilishni, epidigmatika esa ichki ma'no o'sishi va ierarxiyasini xaritalaydi. Shu sababli o'zlashmalarni o'rganishda uchala o'lcham integratsiyasi talab etiladi: fransuzcha birlik o'zbek matnlarida qanday birikmalarda kelyapti (sintagmatika), qaysi o'rinda qanday variant bilan almashinadi (paradigmatika), va nihoyat qaysi yangi, hosila ma'nolar paydo qilmoqda (epidigmatika) [9].

O'zbek tilshunosligida "epidigmatika" tushunchasi so'nggi yillarda bevosita atama sifatida ham, bilvosita, ya'ni polisemiyaning ichki derivatsiyasi, "derivatsion o'lchov", semantik uyalar orqali ham muhokama qilina boshlagan. Bevosita shu atama bilan yozilgan ishlar soni ko'p emas, ammo mavjudlari mazkur yo'nalishni belgilab berdi. Ba'zi tadqiqotlar esa epidigmatik tahlilga tayyor empirik bazani (polisemiyaning frazeologik birliklarni, o'zlashmalarni) taqdim etmoqda. Quyida asosiy olimlar ishlari bo'yicha qisqacha, ilmiy tahliliy sharh va alohida ravishda fransuzcha o'zlashmalar masalasiga to'xtalamiz.

ADABIYOTLAR

1. Firth, J. R. Papers in Linguistics 1934–1951. – London: Oxford University Press, 1957. – 233 b.
2. Sinclair, J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 b.
3. Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. — Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. — 486 с.
4. Шмелев Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики: (на материале рус. яз.). — М.: Наука, 1973. — 278 с.
5. Александрова И. Б. Учебный словарь по лексикологии [Учебник для журналистов]. — М.: МедиаМир, 2014. — 328 с.
6. https://lexicology_dictionary.academic.ru/
7. Калинина М. А. Эпидигматическое освоение галлицизмов в русском языке: дис. ... канд. филол. наук: — Волгоград, 2006. — 271 с.
8. journals.rudn.ru
9. Голев Н. Д. Функции эпидигматики в языке и речи (постановка проблемы) // Типы языковых парадигм: сб. науч. тр. — Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1990. — С. 53–58.